

TILSHUNOSLIKDA QUR’ONI KARIM SURALARINING O’RGANILISHI VA MA’NO XUSUSIYATLARI

Marjona Radjabova Axmadovna

BuxMTI “O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

marjona_radjabova@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qur’oni karimning tilshunoslik nuqtai nazaridan o’rganilishi, undagi suralarning ma’no xususiyatlari haqida so’z boradi. Muallif mustaqillikdan so’ng Qur’onshunoslik sohasida tadqiqot olib borgan tilshunos va Qur’onshunos olimlarning ishlarini o’rganib, ularning bu sohadagi qarashlariga o’z munosabatini bildirgan. Shuningdek, maqolada Qur’oni karim suralarining nomlari va ularning o’zbek tilidagi ma’nolari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Qur’oni karim, Qur’onshunoslik, sura, oyat, vahiy, din, tilshunoslik, tadqiqot.

Аннотация: В данной статье рассматривается изучение Священного Корана с точки зрения лингвистики и смысла его глав. Автор изучает труды лингвистов и коранологов, проводивших исследования в области коранологии после обретения независимости, и высказывает свое мнение об их взглядах в этой области. Также в статье описаны названия глав Священного Корана и их значения на узбекском языке.

Ключевые слова: Священный Коран, изучение Корана, сура, аят, предсказание, религия, лингвистика, исследования.

Abstract: This article examines the study of the Holy Quran from the point of view of linguistics and the meaning of its chapters. The author studies the works of linguists and Quranologists who conducted research in the field of Quranology after independence and expresses his opinion on their views in this area. The article also describes the names of the chapters of the Holy Quran and their meanings in the Uzbek language.

Keywords: Holy Quran, Quran study, surah, verse, revelation, religion, linguistics, research.

Ilm-fan va jamiyat jadallik bilan rivojlanib kelayotgan hozirgi kunda Qur’oni karim matnlarini tarjima va tafsir qilish dunyo olimlari va tajimonlari uchun dolzarb masalalardan biriga aylandi. So’nggi yillarda diniy mavzudagi tadqiqotlarning ko’zga tashlanib qolishi mamalakatimizda Qur’onshunoslik sohasida samarali ishlar boshlanganidan darak beradi. Zero, asrlar davomida o’z ahamiyatini yo’qotmagan Allohning ushbu ilohiy kalomida keltirilgan vahiylar bugungi kunda ilm-fan sohasida o’z dalilini topmoqda. O’tmish va hozirgi kun bilan bog’liq bo’lgan ilmlarni o’zida mujassam etgan Qur’oni karim suralari va ularning ma’no xususiyatlarini tadqiq qilish zamonaviy tilshunoslik, tarjimashunoslik yo’nalishlari uchun ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot ham aynan tilshunoslikda Qur’oni karim suralari va ularning ma’no xususiyatlarini o’rganishga bag’ishlangan.

Taniqli tarjimashunos olim, ustoz G’.Salomovning “Ey umri aziz” (1996) nomli risolasidagi “Qur’oni karimni tarjima qilib bo’ladimi?” rukni ostida berilgan maqolasiga ko’zim tushdi. Muallifning “Men har gal Qur’oni Karimni

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

varaqlaganimda qalbim g’ururga to’ladi. Bu muqaddas kitobning o’zbek tiliga o’girilganini ko’radigan kunlar ham kelar ekan-a, deb taskin topaman. Uning har bir surasini o’qir ekanman, qizil jaholatparastlar va mustamlakachilar nima uchun undan bu qadar cho’chiganligi, ne sabab meni undan bezdirishga jon-jahdi bilan uringanligi sirlarini anglay boshlayman. Ular bizning abadiy ko’r, nodon, ovsar, manqurt bo’lib qolishimizni istagan edilar. Bo’lmadi! Ko’zim yeta boshladiki, Istiqlol barhayot ekan, xalqimiz uning tarixiy takomil o’zaniga tushib oladi. Nihoyat, endi biz, keksa avlod kishilari, o’z farzandlarimiz taqdiridan xotirjam bo’lishimiz mumkin. Ular biz singari soxta, yot ma’naviyat so’qmoqlarida adashib yurmaydilar”, degan jumllarini o’qir ekanman, beixtiyor ko’zimga yosh keldi. Biz hozir shunday bir davrda yashayapmizki, din bag’rikengligi qonun bilan himoyalab qo’yilgan, Shunday ekan, muqaddas dinimizning ilohiy kitobi Qur’oni karimni ilm-fanning qaysi sohasi nuqtai nazaridan o’rganmaylik, ushbu kalomning sirli ilmlari hamma vaqt dunyo olimlari uchun hayratomuz sirli xilqat bo’lib qolaveradi.

Ma’lumki, Qur’oni karim 23 yil mobaynida nozil bo’lgan bo’lib, jami 114 suraga bo’lingan. Bu suralarning bo’linishini Muhammad (s.a.v.)ning o’zlari belgilab berganlar. Oyatlarni sharhlash, ularni tafsir qilish islom dinining ilk davridan beri eng dolzarb masalalardan biri bo’lib kelgan. Shu sababli dastlab, Muhammad payg’ambarning o’zlari oyatlarni sharhlab berganlar. Qur’ondagi suralarning mavzulari turlicha bo’lib, ularning har biri vahiy orqali nozil bo’lgan. Allohning kalomi “al-Fotiha” surasi bilan boshlanib, “an-Nos” surasi bilan yakunlovchi Qur’oni karim “al-Qur’on”, “al-Kitob”, “al-Furqon”, “az-Zikr” va “at-Tanzil” nomlari bilan ataladi. Tarixchi olim I.Bekmirzayev o’zining risolasida “sura” so’zini quyidagicha ta’riflaydi: “Sura” so’zi arab tilida “yuqorilik”, “balandlik” ma’nolarini bildiradi. Uning kelib chiqishi bo’yicha turlicha qarashlar mavjud. Ba’zilar uning ivrit tilidagi “shurax” (qator) so’zidan kelib chiqqanini aytganlar. Yana boshqa qarashga ko’ra, bu so’z suryoniy tilidagi “shurta” “surta” (yozuv) so’zlaridan kelib chiqqan. “Sura” so’zi “boshlanish, tugallanish va nomlarga ega kamida uch oyatdan iborat Qur’on qismlari”ga nisbatan qo’llaniladi” [2:24].

Qur’onshunos olim A.G’Abdullayev o’zining “Qur’onshunoslik” deb nomlangan kiobida Qur’onshunoslikning islomshunoslik fanlari tizimida tutgan o’rni, Qur’on ilmlarining o’rganilishi, Qur’on tarixi va Usmon mushafi xususiyatlari, Qur’onning tarkibiy tuzilishi, Makka va Madinada nozil bo’lgan suralar, Qur’on tarixi va uning bosma nashrlari, Qur’on sura va oyatlari, Qur’on mavzulari kabi masalalarni yoritib beradi. Olimning fikricha, Qur’on suralardan, ular esa, oyatlardan tarkib topgan. Suraga “bob” sifatida ham ta’rif beriladi. Lekin bu aniq, ravshan ifoda

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

emas. Qorilar tomonidan yodlash va eslab qolishga oson bo‘lishi uchun qismlarga bo‘lingan [1:52].

Shuni aytish joizki, mustaqillikdan so‘ng Qur’oni karim mavzulariga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borishga keng yo‘l ochildi. Bu yo‘nalishda tilshunos olim, ustoz H.S.Karomatovning “O‘zbek adabiyotida Qur’on mavzulari” nomli tadqiqotlari ahamiyatlidir. Olim Qur’oni karim tarjimalari an’anasi, o‘zbek mumtoz adabiyotida bu mavzuda ijod qilgan shoirlar va ularning asarlarini o‘rganib, tahlilga tortgan [3].

Bu sohada SH.A.Yodgorov ham o‘zining “Qur’oni karimning inglizcha tarjimalarida adekvatlik muammosining lingvokognitiv tadqiqi” mavzusidagi ilmiy ishida: “Qur’onshunoslikda Qur’oni karim oyatlarining zohiriy (shakliy) mazmuni emas, balki botiniy (tub) ma’nosi tarjima qilinishi lozimligi ilgari surilib, tarjimaga “Qur’oni karim tarjimasi” deb emas, balki “Qur’oni karim ma’nolari tarjimasi” deya murojaat qilinadi. Zero, Qur’oni karim oyatlari zohiran tarjima qilinganda oyat matnidan anglashilinishi lozim bo‘lgan asl mohiyat tamomila boshqacha tus olish ehtimoli ancha yuqori bo‘ladi va ayni shunday holatlardan biri bu oyatlarda uslubiy jihatdan ko‘chma ma’noda kelgan istilohlarni ta’vil qilishda yaqqol ko‘rinadi”, deb e’tirof etadi [4:50]

Olimlarning yuqorida keltirilgan fikrlaridan anglash mumkinki, Qur’oni karim mavzulari va tarjima muammolari tilshunos, tarjimashunos olimlar oldidagi o‘rganilishi kerak bo‘lgan muhim masalalardan biridir. Ayniqsa, tilshunoslik nuqtai nazaridan Qur’oni karim sura va oyatlarini o‘rganib, talqin qilish til va din munosabatlarining chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatmoqda. Shundan kelib chiqib, Qur’oni karim suralarining ma’no xususiyatlarini keltirib o‘tsak:

1. Fotiha – Ochuvchi
2. Baqara – Sigir
3. Oli Imron - Imron oilasi
4. Niso – Ayollar
5. Moida – Dasturxon
6. An’om – Chorva mollari
7. A’rof- Jannat bilan Do‘zaxni ajratuvchi devor (arasot)
8. Anfol - O‘ljalar
9. Tavba – Tavba
10. Yunus - Yunus alayhissalom
11. Hud - Hud alayhissalom
12. Yusuf - Yusuf alayhissalom

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

13. Ra’d – Momaqaldiraq
14. Ibrohim - Ibrohim alayhissalom
15. Hijr - Madina va Shom o’rtasidagi vodiy
16. Nahl – Asalarilar
17. Isro - Tungi sayr
18. Kahf - G’or
19. Maryam - Maryam roziyallahu anhu
20. Toho – To, ho (harf nomlari)
21. Anbiyo - Payg’ambarlar
22. Haj – Haj
23. Muminun - Mo‘minlar
24. Nur – Nur
25. Furqon - Haq bilan nohaqni ajratib berguvchi ilohiy kitob
26. Shuaro – Shoirlar
27. Naml – Chumolilar
28. Qasas – Qissa
29. Ankabut - O‘rgimchak
30. Rum - Rum (Vizantiya davlati nomi)
31. Luqmon – Luqmoni hakim
32. Sajda – Sajda
33. Ahzob – Firqalar, guruhlar
34. Saba’ – Saba’ (Yaman diyoridagi qadimiy shahar)
35. Fotir - Ilk bor Yaratguvchi
36. Yosin – Yo, sin (harf nomlari)
37. Soffot - Saf tortib turguvchilar
38. Sod - Sod (harf nomi)
39. Zumar – Guruhlar
40. G’ofir - Mag‘firat qilguvchi
41. Fussilat - Mufassal bayon qilingan
42. Sho‘ro – Maslahat
43. Zuxruf – Zeb-ziynat
44. Duxon – Tutun
45. Jasiya - Tiz cho‘kuvchilar
46. Ahqof – Qumtepalar
47. Muhammad - Muhammad solallohu alayhi vasallam
48. Fath - G‘alaba

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

49. Hujurot – Hujralar
50. Qof - Qof (harf nomi)
51. Zoriyot – Haydab yuruvchi shamollar
52. Tur - Tur tog‘i
53. Najm – Yulduz
54. Qomar – Oy
55. Ar-Rahmon – Mehribon (Allohning go‘zal ismlaridan biri)
56. Voqea – Voqea (Qiyomatning nomlaridan biri)
57. Hadid – Temir
58. Mujodala – Munozara (bahslashish)
59. Hashr - Jamlab surgun qilish
60. Mumtahana - Imtixon qilinguvchi ayol
61. Saf – Saf tortib turish (saf, qator)
62. Jum‘a - Juma kuni
63. Munofiqun – Munofiqlar
64. Tag‘obun – Bir-birini muomalada aldash
65. Taloq – Taloq
66. Tahrim - Harom qilib, taqiqlash
67. Mulk – Podshohlik, hukmronlik
68. Qalam - Qalam, yozuv asbobi
69. Al-hoqqa - Aniq ro‘y berguvchi voqea (Qiyomat)
70. Maorij - Osmon qavatlar
71. Nuh - Nuh alayhissalom
72. Jin – Jinlar
73. Muzzammil - Kiyimlariga o‘ralib olgan zot
74. Muddassir - Liboslariga burkanib olgan zot
75. Qiyomat – Qiyomat
76. Inson – Inson
77. Mursalot – Alloh tomonidan yuborilgan shamollar
78. Naba’ – Xabar
79. Noziot - Jon olguvchi farishtalar
80. Abasa - Qoshini chimirdi, yuzini burishtirdi (degan ma’noda)
81. Takvir - O‘rab qo‘yish
82. Infitor – Yorilish (osmonning yorilishi)
83. Mutaffifun - Boshqalar haqqidan urib qolguvchi
84. Inshiqoq – Yorilish (osmonning yorilishi)

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

85. Buruj - Osmondagi burjlar
86. Toriq – Zuhul yulduzi
87. A’lo - Eng oliy zot (Alloh taolo)
88. G’oshiya - O’rab olguvchi
89. Fajr – Tong (bomdod vaqti)
90. Balad – Shahar
91. Shams – Quyosh
92. Layl - Kecha, tun
93. Zuxo - Choshgoh vaqti
94. Sharh - Ochmoq, keng qilmoq
95. Tiyn – Anjir
96. Alaq - Laxta qon
97. Qadr - Qadrli kecha
98. Bayyina - Hujjat
99. Zalzala – Zilzila
100. Odiyot - Chopqir otlar
101. Qoria - Qalblarni qattiq qo‘rqituvchi, zarba beruvchi (qiyomat)
102. Takosur - To‘plab ko‘paytirishga berilmoq
103. Asr - Asr namozi vaqti
104. Humaza - Bo‘htonchi (qiybat qiluvchi)
105. Fil - Fil (hayvon)
106. Quraysh – Quraysh (qabila nomi)
107. Mo’un – Ro‘zg‘or buyum va anjomlari
108. Kavsar – Kavsar (hovuz nomi)
109. Kafirun – Kofirlar
110. Nasr – Madad, yordam (g‘alaba)
111. Masad - Pishiq tola (do‘zax olovi)
112. Ixlos - Ixlos qilish
113. Falaq – Tong
114. Nas – Odamlar

Yuqorida ko‘rinib turganidek, Qur’oni karim suralari nomlari turli mavzularda nomlangan bo‘lib, ularning semantik xususiyatlari, tasnif muammolari, etimologik jihatlari va tarjima usullari o‘zbek tilshunosligida to‘laligicha o‘rganilmagan. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Qur’oni karim mavzulari tilshunoslikda chuqur tahlil qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb masalardan biridir.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.G‘.Abdullayev. Qur’onshunoslik: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, Toshkent, “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. – 192 b.
2. I.Bekmirzayev, A.Alloqulov. Islomchunoslik asoslari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, Toshkent, “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. – 102 b.
3. H.S.Karomatov. O‘zbek adabiyotida Qur’on mavzulari (adabiy-tarixiy tahlil): Filol. fan. dokt. diss. – Toshkent, 1993. – 281 b.
4. Sh.A.Yodgorov. Qur’oni karimning inglizcha tarjimalarida adekvatlik muammosining lingvokognitiv tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) diss. – Namangan, 2024. – 166 b.